



АКТУАР МОЛИЯ ВА БУХГАЛТЕРИЯ ХИСОБИ ИЛМИЙ ЖУРНАЛИ

Vol. 4 Issue 01 | pp. 225-232 | ISSN: 2181-1865
Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

BOSHQARUV HISOBINING HOZIRGI HOLATI VA UNING RIVOJLANISH TENDENTSIYALARI



N.B. Abdusalomova

TDIU "Buxgalteriya hisobi"
kafedrasi mudiri i.f.d., professor

M.A. Abdug'aniyev

TDIU "Moliya va buxgalteriya hisobi"
fakulteti talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada muallif korxonalarda boshqaruv hisobini tashkil etish holati, mavjud muammolar va uni rivojlantirish jihatlarini atroflicha yoritib berilgan. Shuningdek boshqaruv hisobini rivojlanish bosqichlari, iqtisodchi olimlarning yondashuvlari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar. Boshqaruv hisobi, nazorat, boshqaruv qarorlarini qabul qilish, to'liq tannarx, xarajatlar.

СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ УПРАВЛЕНЧЕСКОГО УЧЕТА И ТЕНДЕНЦИИ ЕГО РАЗВИТИЯ

Н.Б. Абдусаламов

М.А.Абдуганиев

Ташкентский государственный экономический университет

Абстракт: В данной статье автор подробно описывает состояние организации управлеченческого учета на предприятиях, существующие проблемы и аспекты его развития. Также анализируются этапы развития управлеченческого учета, подходы экономистов.

Ключевые слова: Управленческий учет, контроль, принятие управленческих решений, полная калькуляция, расходы.

THE CURRENT STATE OF MANAGEMENT ACCOUNTING AND ITS DEVELOPMENT TENDENCIES

N.B. Abdusalomova

M.A. Abdug'aniyev

Tashkent State University of Economics

Abstract: In this article, the author describes in detail the state of organization of management accounting in enterprises, existing problems and aspects of its development. Also, stages of development of management accounting, approaches of economists are analyzed.

Key words: Management accounting, control, management decision-making, full costing, expenses.

1. Kirish

Iqtisodiyot jadallik bilan rivojlanayotga hozirgi sharoitda korxonalarda boshqaruv hisobini yuritish va undan to'g'ri foydalanishni ta'minlash muammosi tobora dolzarb bo'lib bormoqda. Boshqaruv hisobi tizimini to'g'ri tashkil etilishi boshqarishning zarur vositasi bo'lib, boshqaruv qarorlarining sifati va samaradorligini, kutilgan ijobiy natijani maksimal darajada oshirish va iqtisodiy faoliyat xavflarini samarali boshqarishda muhim ahamiyat kasb etadi. Xalqaro miqyosda boshqaruv hisobini targ'ib qilish, metodologiyasini takomillashtirish masalalari "Xalqaro buxgalterlar federatsiyasi (International Federation of Accountants, IFAC) qoshidagi Moliyaviy va boshqaruv hisobi qo'mitasi, AQShda Boshqaruv hisobi instituti (Institute of Management Accountants – IMA) va Buyuk Britaniyaning Boshqaruv buxgalterlari instituti (Chartered Institute of Management Accountants (CIMA)" tomonidan ko'rib chiqiladi. Qo'mita kompaniyalar uchun tavsiya etiladigan boshqaruv hisobi standartlarini ishlab chiqadi. Boshqaruv hisobi institutining dunyo miqyosida 75000 ta a'zosi va 300 dan ortiq mintaqaviy vakolatxonalari mavjud. CIMA boshqaruv hisobining 4 ta asosiy tamoyilini tavsiya etadi: "aloqa, ma'lumotlardan foydalanish, omillar ta'sirini tahlil qilish, ishonchli boshqaruv". Hozirgi vaqtida boshqaruv hisobining funktsiyalari va tamoyillari ro'yxati sezilarli darajada kengayib, byudjetlashtirish va ichki nazoratni tashkil qilishni uslubiy jihatdan takomillashtirish muammosi dolzarb bo'lib qolmoqda.

2. Adabiyotlar sharhi

Boshqaruv hisobining o'ziga xos xususiyatlari, mohiyati qator olimlarning ilmiy ishlarida o'z aksini topgan. Iqtisodchi olim A.D. Sheremet boshqaruv hisobini quyidagicha talqin qiladi, "Boshqaruv hisobi buxgalteriya hisobining quyi tizimi bo'lib, bir korxona ichida o'z boshqaruv xodimlarini korxona faoliyatini rejalashtirish, boshqarish va nazorat qilish uchun foydalaniladigan ma'lumot bilan ta'minlaydi"[1].

T.P. Karpova: "Boshqaruv hisobini tashkil etish kal'kulyatsiya hisobi asosida yuzaga keldi, shuning uchun uning asosiy mazmunini kelgusida va joriy davrdagi ishlab chiqarish xarajatlarining turli jihatlarini tasniflash tashkil etadi", - deb ta'kidlaydi. Ushbu ta'rifa boshqaruv hisobi, asosan xarajatlar hisobi sifatida ko'rilib, boshqaruv hisobining korxonalarda qaror qabul qilish va nazorat qilish uchun axborotning asosiy manbai ekanligi chetda qoldirilgan[2].

S.A. Nikolaeva boshqaruv hisobini alohida bir tizim sifatida yanada aniqroq yoritib beradi: "Boshqaruv hisobi korxonaning boshqaruv tizimi bo'lib, u o'zida turli boshqaruv usullari va ularni yagona maqsadga erishish uchun ularni birlashtiradi", - degan fikrni bildiradi[3].

E.A. Atkinson: «Boshqaruv hisobi – qandaydir ob'ektlarni boshqarish uchun zarur axborotni identifikatsiyalash, o'lchash, to'plash, bir tizimga solish, tahlil qilish, ajratish, talqin qilish va uzatish», [4] - deb ta'riflaydi.

Ushbu masalada iqtisodchi olim, professor B.A. Xasanovning fikricha, boshqaruv hisobi ichki xo'jalik hisobining o'tgan, hozirgi va kelgusi davr nuqtai-nazaridan korxona va uning tuzilmaviy bo'linmalari xarajatlari va natijalari to'g'risidagi axborotning yaxlit holga keltirilgan taqdimidir[5].

B.Y. Maxsudovning fikricha, boshqaruv hisobi buxgalteriya hisobining metodlaridan tashqari statistika, iqtisodiy tahlil va iqtisodiy-matematik metodlar, kompleks iqtisodiy

tahlilning eng asosiy bo'limlaridan biri bo'lgan parametrik tahlil va marketing tadqiqotlari uslublarini ham qo'llaydi[6].

Ushbu mualliflarning fikricha, umumiy ko'rinishda boshqaruv hisobi korxonani boshqarish tizimining muhim elementi va hisob yuritish jarayoni bilan boshqaruv o'rtasidagi bog'lovchi bo'g'in sifatida ko'rilib, boshqaruv hisobining hozirgi sharoitdagi mohiyatini, ya'ni daromadlar va xarajatlar hisobini yuritish, me'yornarni belgilash, rejalashtirish, nazorat va tahlil qilishning integratsiyalashgan tizimi sifatida, shuningdek, u tezkor boshqaruv qarorlarini qabul qilish va korxonani kelgusida rivojlanadirish muammolarini muvofiqlashtirish uchun axborotni tizimlashtiradigan boshqaruv sifatida yetarlicha ochib berilmagan.

Bizning fikrimizcha, boshqaruv hisobining o'ziga xos jihat shundaki, u o'zining asosida boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun zarur bo'lgan korxonaning umumiy axborot tizimini ifoda etadi. Yuqorida aytilgandan kelib chiqib, boshqaruv hisobining asosiy maqsadi muayyan ishlab chiqarish natijalari uchun mas'ul bo'lgan barcha boshqaruv pog'onalaridagi korxona boshqaruvchilarini axborot bilan ta'minlashdan iboratdir, degan xulosaga kelindi.

3. Tadqiqot metodologiyasi

Olib borilayotgan tadqiqot ishining metodologik asosi bo'lib, ma'lumotlarni kuzatish, to'plash, me'yoriy-hujjatlarni o'rganish va iqtisodiy munosabatlar rivojlanishidagi voqealarni, bog'liqlikni o'rghanishga nisbatan yalpi va tizimli yondashuvchi umumiy ilmiy tamoyillar xizmat qiladi. Tizimli yondashuv sifatida boshqaruv hisobini tashkil etish mohiyatiga aniqlik kiritish, boshqaruv hisobni yuritish konsepsiyasini tahlil qilish va baholash hisoblanadi. Qo'yilgan masalani yechimiga nisbatan yalpi yondashuv buxgalteriya hisobi, boshqaruv hisobi hamda iqtisodiyotning tayanch tarmog'i korxonalarini boshqarish sohasida tadqiqotlar o'tkazishni belgilab berdi.

4. Tahlil va natijalar

Bugungi kunda ko'plab korxonalar o'zlarini faoliyat yuritadigan muhitda keskin o'zgarishlarga duch kelishmoqda. Ular juda qattiq raqobat bilan jahon bozorida ishslashlari kerak. Bunday sharoitda muvaffaqiyatli ishslash va rivojlanish uchun kompaniya menejerlarda ichki va tashqi foydalanuvchilarining ehtiyojlarini qondira oladigan va turli vazifalarni bajarish uchun foydalaniladigan o'z vaqtida, yuqori sifatli ma'lumotlarga ehtiyoj paydo bo'ladi. G'arbdan ushbu bo'linish asosida buxgalteriya hisobining ichki va tashqi foydalanuvchilarining buxgalteriya ma'lumotlariga bo'lgan ehtiyojlarini aks ettiruvchi ikkita yo'nalish shakllandi: moliyaviy va boshqaruv hisobi.

Boshqaruv hisobi - korxona axborot tizimining bir qismidir. Ishlab chiqarishni boshqarish samaradorligi korxonaning tarkibiy bo'linmalari, xizmatlari va bo'limlari faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlar bilan ta'minlanadi. Boshqaruv hisobi to'g'ri boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun korxona ichidagi boshqaruvning turli darajadagi menejerlari uchun ushbu ma'lumotlarni shakllantiradi.

Boshqaruv hisobining vazifasi tashkilotning ichki foydalanuvchilarini axborot bilan ta'minlashdan iborat bo'lib, ular asosida samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilishlari, joriy operatsiyalarning samaradorligi va unumdorligini oshirishlari mumkin. Boshqaruv hisobi ma'lumotlari, qoida tariqasida, kompaniya ichida qo'llaniladi va undan tashqariga chiqmaydi.

Boshqaruv hisobining mazmuni boshqaruv maqsadlari bilan belgilanadi: u ma'muriyat qarori bilan ichki bo'linmalar rahbarlari oldiga qo'yilgan aniq manfaatlar va maqsadlarni hisobga olgan holda o'zgartirilishi mumkin.

Boshqaruv hisobining shakllanishi ishlab chiqarish hisobi asosida amalga oshirildi. Shuning uchun uning asosiy mazmunini turli tasniflash jihatlarida kelgusi va o'tgan davrlarning ishlab chiqarish xarajatlarini hisobga olish tashkil etadi. Uzoq vaqt davomida mahalliy korxonalar amaliyotida asosiy e'tibor an'anaviy buxgalteriya hisobini yuritishga qaratilgan. Korxonalarda boshqaruv hisobi yo mavjud emas edi yoki juda yomon rivojlangan edi. Biroq, so'nggi o'n yilliklarda buxgalteriya hisobi nazariyasi va amaliyotidagi barcha vazifalar to'plami tobora ko'proq boshqaruv hisobi kontseptsiyasining mazmuni, uni korxonada tashkil etishning samarali usullarini izlash bilan namoyon bo'lmoqda. Ko'pgina mutaxassislarning boshqaruv hisobi muammolariga qiziqishi aniq. Biroq, uning mohiyati, ma'nosи va korxona boshqaruv tizimida va umuman buxgalteriya hisobi nazariyasidagi o'mi to'g'risida aniq nazariya mavjud emas.

Bugungi kunda iqtisodiy adabiyotlarda boshqaruv hisobi bo'yicha mutaxassislarning bir nechta asosiy qarashlari mavjud: ba'zilari boshqaruv hisobini mustaqil fan sifatida ajratadilar; boshqalar - boshqaruv va ishlab chiqarish hisobini aniqlash va ajratish; boshqalar zamonaviy sharoitda buxgalteriya tizimi uchta quyi tizimni o'z ichiga oladi deb hisoblashadi: buxgalteriya hisobi, boshqaruv va soliq hisobi.

Ishlab chiqarish hisobi ham boshqaruv, ham moliyaviy hisob uchun ma'lum bo'limlar, mahsulot turlari, tannarx moddalari va boshqalar bo'yicha ishlab chiqarish xarajatlari to'g'risida ma'lumotlarni taqdim etish uchun mo'ljallangan. Shuning uchun bizning fikricha, boshqaruv hisobi va ishlab chiqarish hisobini aniqlash mutlaqo to'g'ri emas.

Boshqaruv hisobi tushunchasi ishlab chiqarish hisobiga qaraganda ancha kengroq bo'lib, u ishlab chiqarish xarajatlarini sof hisobga olishdan tashqari, operativ hisob, tahlil, rejalashtirish, prognozlash va boshqalarni ham o'z ichiga oladi. Fikrlardagi bunday noaniqlik, birinchi navbatda, mamlakatda buxgalteriya hisobi tartibini tartibga soluvchi huquqiy hujjatlarda boshqaruv hisobining rasmiy ta'rifi va tan olinmaganligi bilan bog'liq. Aksariyat hollarda boshqaruv hisobini yuritishning me'yoriy-huquqiy bazasi alohida standartlar, normativlar, bevosita kompaniya doirasida ishlab chiqilgan ko'rsatma va yo'riqnomalardir. Va bu juda asoslidir, chunki boshqaruv hisobi tizimini tashkil etish har bir kompaniyaning ichki ishi bo'lib, davlat tashkilotni boshqaruv hisobini yuritishni yoki uning tashkil etilishini qonun hujjatlari bilan tartibga solishni majbur qila olmaydi.

Boshqaruv hisobini G'arbda paydo bo'lgan va an'anaviy buxgalteriya hisobining moliyaviy hisob va kalkulyatsion hisobga bo'linishi bilan bog'liq. Shuningdek boshqaruv hisobining vazifalari ham ishlab chiqarish hisobnikidan kengroq. Boshqaruv hisobida birinchi navbatda, ishlari va xizmatlarning tannarxini hisoblash, rejalashtirish (byudjetlashtirish), analistik hisob-kitoblar, kompaniyaning barcha bo'linmalari, ularning xarajatlarini nazorat qilish va natijada boshqaruv hisobotini taqdim etishni o'z ichiga oladi. Ushbu vazifalarni bir qismi sifatida AQSHda 20-asr boshlarida F. Teylor, G. Emersonlar tomonidan belgilangan me'yor va standartlar doirasida xarajatlarni hisobga olish hamda ulardan chetlanishlarni aniqlash, nazorat qilish tamoyiliga asoslangan "Standart-cost" hisob tizimini taklif qildilar. Me'yorlashtirilgan tannarx - bu yaxlit

tushuncha. Agar u to'liq qo'llanilsa, u holda haqiqiy ishlab chiqarish xarajatlari haqidagi barcha ma'lumotlar me'yoriy qiymatlar bilan almashtiriladi. Standart va haqiqiy xarajatlar o'rtasidagi farq chetlanish deb ataladi. Shuning uchun haqiqiy xarajatlarni hisobga olish me'yorlar va og'ishlar bo'yicha xarajatlar hisobi yordamida amalga oshiriladi. Standard-cost tizimi kompaniya rahbariyati va mulk egalarining ehtiyojlarini to'liq qondiradi va alohida xodimlar va umuman kompaniya faoliyatini baholashga, byudjet va prognozlarni tayyorlashga, real narxlarni belgilash bo'yicha qarorlar qabul qilishga yordam beradi. Belgilangan standartlarga asoslanib, mahsulotni ishlab chiqarish va sotish uchun kutilayotgan xarajatlar miqdorini oldindan aniqlash, narxlarni aniqlash uchun mahsulot birligi tannarxini hisoblash, shuningdek, kelgusi yilda kutilayotgan daromadlar to'g'risida hisobot tuzish mumkin. Ushbu tizim yordamida mavjud og'ishlar haqidagi ma'lumotlar rahbariyat tomonidan tezkor boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun ishlatiladi. Ushbu tizim butun dunyo bo'ylab ko'plab ishlab chiqarish kompaniyalari tomonidan keng qo'llaniladi. Mamlakatimizda aksariyat kompaniyalar tomonidan G'arbiy "Standart-kost" tizimining bir turi sifatida xarajatlarni hisobga olish va ishlab chiqarish xarajatlarini hisoblashning me'yoriy usuli keng tarqalgan.

Xarajatlar hisobini rivojlantirishning yana bir yo'naliishi "to'liqsiz tannarx" usuli yoki "Direkt-kosting" deb nomlangan tannarxni hisobga olish va tannarxni hisobga olishni marjinal usulining paydo bo'lishidir. Xarajatlarni hisobga olishning ushbu usuli amerikalik iqtisodchi Jonatan Xarrison tomonidan taklif qilingan va darhol "to'liq tannarx" usuli tarafdarlari tomonidan tanqid qilingan. "Direkt-kosting" hisoblash tizimi barcha o'zgaruvchan ishlab chiqarish xarajatlari mahsulot tannarxi bilan, barcha doimiy ishlab chiqarish xarajatlari esa davr xarajatlarida aks ettirilishi bilan tavsiflanadi. "Direkt-kosting" dan foydalanganda rejalashtirish faqat o'zgaruvchan xarajatlar doirasida amalga oshiriladi. Sotishdan tushgan tushum va o'zgaruvchan xarajatlar o'rtasidagi farq marjinal daromad deb ataladi. Marjinal daromad ko'rsatkich sifatida narxlarni operativ boshqarish va narxlash jarayonlari uchun asos bo'lib xizmat qiladi. "Direct-Cost" kalkulyatsiya tizimi quyidagi hisob obyektlaridan iboratdir:

1. Mahsulotlarni sotishdan tushgan tushumlar (QQS, aktsizlar va shunga o'xshash to'lov turlarini o'z ichiga olmaydi);
2. O'zgaruvchan xarajatlar;
3. Marjinal daromad (1 va 2-bandlar orasidagi farq);
4. Doimiy xarajatlar;
5. Operatsion foyda.

Ushbu usulda xarajatlarni hisoblash jarayoni soddalashtirilgan, chunki u faqat ishlab chiqarish xarajatlari nuqtai nazaridan rejalashtirilgan va hisobga olinadi; ushbu usuldan foydalanganda xomashyoni o'z korxonamizda ishlab chiqarish yoki ularni chetdan sotib olish tartibi soddalashtirilgan; mahsulot turlari o'rtasida doimiy xarajatlarni shartli taqsimlash uchun kompleks hisob-kitoblarni tuzish tartiblari mavjud emas. Hozirgi vaqtida barcha iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda "Direkt-kost" usuli keng qo'llaniladi. Buxgalteriya hisobi standartlari tashqi hisobotlarni tayyorlash va soliqlarni hisoblash uchun Direct-Cost tizimidan to'liq foydalanishga imkon bermasa ham, hozirgi vaqtida bu usul mahalliy buxgalteriya amaliyotida tobora ko'proq foydalanilmogda. U asosan ichki

buxgalteriya hisobi va tahlili, zararsiz ishlab chiqarish, narxlar va boshqalar sohasida ham istiqbolli, ham tezkor boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun ishlataladi.

Boshqaruv hisobining metodologiyasi va tartiblari doimo rivojlanib bormoqda. Buxgalteriya hisobining yangi usullari paydo bo'lib, ular yangi boshqaruv hisobi nazariyalariga mos keladi, masalan, "O'z vaqtida" (JIT) boshqaruvi, "Faoliyatga asoslangan menejment" (Activity -based Management ABM) va boshqalar, bu usullarda asosiy e'tibor axborotni tezkor boshqarishdan strategic boshqarishga qaratiladi.

1980-yillarning oxirida matbuotda strategik boshqaruv hisobi yangi raqobat sharoitida biznes yuritish uchun ko'proq mos keladigan yangi yondashuv sifatida faol targ'ib qilina boshladi. Strategik boshqaruv hisobi rivojlanishning potentsial sohasi sifatida taqdim etiladi, uning natijalari boshqaruv hisobiga katta hissa qo'shadi. Bu faqat rivojlanayotgan soha, shuning uchun uning chegaralari aniq belgilanmagan va juda noaniq. Ushbu masala bo'yicha mualliflarning fikrlari juda xilma-xildir, shuning uchun strategik boshqaruv hisobi mavzusi davriy matbuotda ham, ilmiy-amaliy konferentsiyalar, simpoziumlar va seminarlarda ham ko'plab muhokamalar mavzusidir. Masalan, R. Kuper va R.S. Kaplanning ta'kidlashicha, strategik boshqaruv hisobi texnikasi birinchi navbatda korxonaning umumiyligi raqobat strategiyasini qo'llab-quvvatlash uchun, asosiy maqsadi, axborot texnologiyalaridan foydalanish asosida mahsulot tannarxini hisobga olishni yaxshilash uchun ishlab chiqilgan. Turli mualliflarning ta'kidlashicha, strategik boshqaruv hisobi sohasi bilan bog'liq boshqa usullar mahsulotning butun hayotiy tsikli uchun maqsadli xarajatlarni hisoblashdir. Biroq, aksariyat mutaxassislar boshqa ta'riflarni taklif qilishadi, ularning yondashuvida asosiy e'tibor strategik boshqaruv hisobining tashqi yo'nalishiga qaratiladi. Yuqorida aytilganlarning barchasini umumlashtirgan holda shunday xulosaga kelishimiz mumkin, boshqaruv hisobi mazmunidagi barcha o'zgarishlar uning kompaniyalardagi rolining o'zgarishi, buxgalteriya hisobi sohasidagi yangi tadqiqotlar yutuqlari bilan bog'liq. Shunga qaramay, hozirgi vaqtda korxonada boshqaruv hisobining yaxlit tizimini shakllantirish bilan bog'liq ma'lum qiyinchiliklar mavjud bo'lib, ushbu tizimni yaratish zamonaviy sharoitda ob'ektiv zaruratga aylanadi. Boshqaruv hisobining rivojlanish bosqichlarining xususiyatlari quyidagi 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval.

Boshqaruv hisobining rivojlanish bosqichlari

Boshqaruv hisobining rivojlanish bosqichining nomi	Davr chegarasi	Faoliyat turi	Faoliyatning asosiy mazmuni
Rivojlanish (0 bosqich)	XIX asrning oxirigacha		
Texnik (1 bosqich)	XX asrning boshi -1950	Resurs sarfi nazorati	Xarajatlarni hisobga olish va me'yorlashtirish

	yilgacha		
Boshqaruv (2 bosqich)	1950 yilni boshi – 1980 yillarni o'rtalari	Rejalahtirish va boshqaruv qarorlarini qabul qilish. Resurslarni sarfini kamaytirish	Mas'uliyat markazlari bo'yicha boshqarish. Funktsiya bo'yicha hisob va boshqaruv. Iqtisodiy axborotni modellashtirish va tahlil qilishning matematik usullari
Moliyaviy (3 bosqich)	1980 yil o'rtalari – 1990 yil oxiri	Biznes zanjirlarining barcha tarkibiy qismlarida qiymat yaratish	Kompaniya qiymatini boshqarish. Strategik boshqaruv hisobi
Bozor (4 bosqich)	1990- yillarning oxiri - hozirgi kun	O'zgaruvchan muhitda samaradorlik va raqobatbardoshlikni saqlab qolish	Tashkilotning biznes muhiti bilan o'zaro ta'sirida boshqaruv innovatsiyalari

Ilmiy adabiyotlarda boshqaruv hisobining rivojlanish tarixini ikkita konseptual yondashuvga ajratiladi: iqtisodiy (iqtisodiy ratsionallik nuqtai nazaridan) va noiqtisodiy (Mishel Fuko falsafasi ruhidagi). Birinchi yondashuv doirasida buxgalteriya hisobi tarixi iqtisodiy voqelikning o'zgarishiga javoban tobora ko'proq yangi texnika va usullar qatori sifatida talqin etiladi. Ikkinci yondashuvda boshqaruv hisobi "mutaxassis intizomiylar bilimlari" tizimi - ijtimoiy va iqtisodiy hayotning barcha sohalari ustidan davlat nazorati tizimlarining bir qismi sifatida, ya'ni, barcha sub'ektlarni (korxonalardan tortib to jismoniy shaxslargacha) standartlardagi talablarga muvofiqligini baholash tizimlari sifatida qaraladi. Bundan tashqari, ba'zi tadqiqotchilarining fikriga ko'ra, raqamli ma'lumotlar yordamida boshqaruv va nazorat dastlab ishlab chiqarish jarayonlarini qo'llab-quvvatlash uchun emas, balki ko'plab odamlar jalb qilingan intizomiy maqsadlarda - harbiy xizmatda, ta'lim muassasalarida, korxonalarda foydalanilgan. 19-asrning oxiriga kelib biznesda nazorat mafkurasi ham qabul qilindi, bu usullarning yaratilishi va qo'llanilishiga, keyinchalik boshqaruv hisobining institutsionallashuviga olib keldi. Boshqaruv hisobining aniq predmeti, vazifalari va usullari buxgalteriya hisobining keng axborot va uslubiy sohasidan ancha uzoq vaqt ajratilganiga qaramay, "boshqaruv hisobi" atamasi (predmet nomi) yaqinda - 1950-1960 yillarda ayniqsa, ingliz tilida so'zlashadigan mamlakatlarda qo'llanila boshlandi.

Xalqaro miqyosda boshqaruv hisobini targ'ib qilish, metodologiyasini takomillashtirish masalalari «Xalqaro buxgalterlar federatsiyasi (International Federation of Accountants, IFAC) qoshidagi Moliyaviy va boshqaruv hisobi qo'mitasi, AQShda Boshqaruv hisobi instituti (Institute of Management Accountants – IMA) va Buyuk Britaniyaning Boshqaruv buxgalterlari instituti (Chartered Institute of Management Accountants (CIMA)) tomonidan ko'rib chiqiladi. Qo'mita kompaniyalar uchun tavsiya etiladigan boshqaruv hisobi standartlarini ishlab chiqadi. Boshqaruv hisobi institutining dunyo miqyosida 75000 ta a'zosi va 300 dan ortiq mintaqaviy vakolatxonalari mavjud.

CIMA boshqaruv hisobining 4 ta asosiy tamoyilini tavsiya etadi: «aloqa, ma'lumotlardan foydalanish, omillar ta'sirini tahlil qilish, ishonchli boshqaruv».

Zamonaviy biznesni uzoq vaqtadan beri boshqaruv hisobisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Bu nafaqat yirik korporatsiyalar, balki kichik firmalar uchun ham muhimdir, chunki iqtisodiy faoliyatning barcha turlari boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun ma'lumotlarni qayta ishlashni o'z ichiga oladi. Ammo boshqaruv hisobi usullari nafaqat biznesda, balki XXI-asrning boshidan beri notijorat tashkilotlarni boshqarishda (xususan, ta'lim va sog'lioni saqlash tashkilotlarida), davlat va munitsipal boshqaruvda, qayerda bo'lishidan qat'i nazar, tobora ko'proq foydalanilmoqda. Ya'ni daromadlar, xarajatlar va tashkilotlarning maqsadlari o'rtaсидаги muvozanatni saqlash muhimdir. Notijorat tashkilotlarda boshqaruv hisobining rivojlanishi nafaqat iqtisodiy ma'lumotlarni qayta ishslashning ma'lum usullarini qo'llash uchun yangi imkoniyatlarni beradi, balki yangi muammolarni ham keltirib chiqaradi, yangi yondashuv va usullarni talab qiladi.

5. Xulosa va takliflar

Bozor iqtisodiyoti sharoitigacha bo'lgan davrda ishlab chiqarish korxonalari xarajatlari to'g'risidagi ma'lumotlarni me'yorlash va qayta ishlash usullari ayniqsa keng tarqalgan hamda chuqur ishlab chiqilgan: bu ish an'anaviy ravishda ularning rejalashtirish va iqtisodiy bo'limlari tomonidan bajarilgan. Biroq, afsuski, bu axborot aylanmasining katta qismi faqat yuqori davlat organlariga hisobot berish maqsadida foydalanilgan va korxonaning o'zida boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun hech qanday ahamiyatga ega emas edi. Keyinchalik iqtisodiyotni yana ham rivojlanishi belgilangan rejalashtiruvchilardan farqli o'laroq, boshqaruv hisobi sohasidagi zamonaviy mutaxassis nafaqat o'nlab yillar davomida ishlab chiqilgan usullarni o'zlashtirishi kerak, balki o'z faoliyatining asosiy maqsadini, ya'ni boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun tegishli ma'lumotlarni taqdim etishni amalga oshirishi kerakligini ko'rsatdi.

Boshqaruv hisobining mohiyati, uning tarkibi va rivojlanishini o'rganish natijasida buxgalteriya hisobi elementlarini birlashtirishga asoslangan boshqaruv maqsadlarida boshqaruv hisobini yaratish va asoslashni ta'minlaydi va amaliy-statistik ma'lumotlar asosida tahlil qilib, ichki nazoratni samarali tashkil etish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Шеремет А.Д. Управленческий учет. / Под ред. А.Д. Шеремета / А.Д. Шеремет, И.М. Волков, М.В. Грачева и др. – ИНФРА-М Москва, 2009. С. 17.
2. Карпова, Т.П. Управленческий учет [Текст]. / Т.П. Карпова. - М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2012.- с.28.
3. Николаева С.А. Управленческий учет. Учебное пособие. Рассказова:- Николаева С.А., Шебек С.В. - М.: Питер, 2013.с. 84.
4. Аткинсон Э.А. Управленческий учет./ Э.А. Аткинсон, Р.Д. Банкер, Р.С. Каплан; Пер. с англ.-М.: Изд. дом« [Вильямс](#)», 2016.880 с.
5. Хасанов Б.А. Бошқарув хисоби. Монография. Т.: 2003. – 191 б.
6. Махсудов Б.Ю. Бошқарув хисобида бюджетлаштириш методологиясини тақомиллаштириш. Монография. Т.: Фан ва технологиялар нашириёти, 2017.-265 б.

Copyright: © 2024 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution- 4.0 International License (CC - BY 4.0)

